

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING NUTQINI  
INGLIZ TILIDA RIVOJLANTIRISH**

**Rahimova Mexrangiz**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Ilmiy rahbar: Zubaydova N.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi ko'nikmalarini rivojlantirishda nutqning o'rni va ahamiyati va ingliz tili darslarini integratsiyalashning eng samarali metodikasi va uslublari haqida malumotlar bayon etilgan.

**Kirish:** Boshlang'ich sinflarda ingliz tili va boshqa chet tillarini o'qitish jarayonida talimning an'anaviy va interfaol o'qitish usullardan foydalilanadi. Dastlabki bosqichlarda, talim berishning interaktiv usul va bosqichlaridan keng foydalangan holda, o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini oshirishga katta e'tibor beriladi. Asosan amaliy mashg'ulotlarning ko'pchiligi, og'zaki va yozma shaklda tashkil etilishi ko'zda tutiladi. Ingliz va boshqa chet tillarida amaliy mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida pedagoglardan ilg'or pedagogik texnologiyalardan, xususan ko'rgazmali va qiziqarli slaydlarni kompyuter orqali o'quvchilarga namoyish etish, turli xil video va bolalar uchun qiziqarli bo'lган ingliz tilidagi multfilmlarni proektor orqali tasvirga chiqarish vositalaridan foydalilanadi. Fanning amaliy mashg'ulotlarida talimning innovatsion, interfaol metodlari, jumladan ekspress-so'rovlari, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, kichik guruhlarda ishslash, menu, debat kabi metodlarini qo'llash va ularni o'quvchilarining bilim darajasidan kelib chiqqan holda ularni fanga jalg etish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinflarda fanning o'qitish metodikasi o'quv fanini o'rganish, o'zlashtirish jarayonida ta'limning bakalavr bosqichi talabalaridan o'rta umumta'lim muktab, bolalarga chet til o'qitish metodikasidan amaliy bilimlarni egallash talab qilinadi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, integratsiya, metodika, nutq, matorika, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, aqliy, jismoniy, ovozlar, o'qituvchi, audiolar, didaktik o'yinlar.

Zamonaviy va integrallashgan boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga yagona turki bo'lган muhim qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qarorning ijrosi asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin va turli texnologik vositalar tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, keyingi qolgan sinflardan boshlab

esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorning to'liq ijrosi va mazmuniga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalişlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga va ularni butun mamlakat makteblari bo'yicha tatbiq etishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim makteblarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'zin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzlucksiz va mazmunli o'rgatish usullari yo'lga qo'yildi. Va shuningdek, ushbu yuqorida ta'kidlagan sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar bilan birgalikda ularning audio versiyalari yaratildi. Buning asosiy sababi esa, chet tilini nafaqat bilish va ularni tushunish, tinglash, balki nutqlari orqali bilish darajalarini ko'rsatish hisoblanadi. Diqqatga molik jihat, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'zin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibligi va ularga mosligini ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida turli so'zlar orqali o'rganishdan boshladilar.

### **Fan bo'yicha pedagoglarning bilim darajasi, va ularning ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.**

Bugungi kunda endi etishib kelayotgan yosh avlodning dunyo qarashi, fikrlash doirasi, chet tillarining o'rganish jarayonida qo'yiladigan xató va kamchiliklari, va nutqiy muammolarini bartaraf etish uchun, mamlakatimizdagi ko'pchilik boshlang'ich maktab va maktabgacha talim muassasalaridagi barcha kadrlarni chet tillarini bilish darajalarini va ulkarning malakalarini to'g'ri baholash bo'yicha turli tuman chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi mamlakat yoshlarini to'g'ri va aniq maqsadli ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoit deb atasak noto'g'ri bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi o'quv fanini o'rganish va o'rgatish jarayonida turli amaliy va nazariy ko'nikmalar talab qilinadi. Va bularning barchasi o'qitish jarayonining yanada tez va oson yo'l bilan amalga oshirilishini ta'minlaydi.

#### **1. Nazariy bilimlarni egallash bo'yicha qo'yiladigan talablar:**

-Boshlangich sinflarda chet til o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, metodik tushunchalar, vositalar, metodlar, tamoyillar, usullar, mashqlar tizimi haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lish;

-xorijiy tillarini o'rganayotgan yosh o'rganuvchilarga til materialini (talaffuz, leksika, grammatika) metodikasini tushuntirish;

- chet tilida nutq faoliyati turlarini tinglab tushunish, gapishtirish, o'qish va yozuv malakalarini turli samarali usullar orqali o'rgatishni bilish;

-chet tili o'qitish jarayonini tashkil qilish, uni rejalashtirish, dars rejasini o'quvchilarning tabiatidan kelib chiqqan holda, tuzish va reyting tizimini bilish.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi va ikkinchi sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini va ularning mazkur kriteriyalarga mos yoki mos emasliklarini hisobga olish kerak. Maqola boshida ta'kidlangan qarorda aytilganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi demo darslar va og'zaki nutq darslari va o'yinlari shaklida chet tillarini o'rgatishni va amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'linda jarayinida turli-tuman o'yin texnologiyalari va ularning strukturalaridan foydalanish, eng samarali va foydali vositalardan biri ekanligi bu hammaga a'yondir. O'yin va demo darslar olib borish vaqtida ularning tafakkuri, bilim darajasi, tashqi olamga nisbatan dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayib boradi. Olimlar va turli professorlar ta'lim jarayoniga o'yin va qiziqarli mashqlar va amaliyotlar orqali yondashuv bolaga ta'lim berish jarayonida osonlashtiradi, deb chuqr ta'kidlashadi. Nafaqat bu usul va metodika orqali dars o'tish osonlashadi, balki bu fanga nisbatan bolaning qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqr bilim olishiga nisbatan undov uyg'onadi. O'yin tarzidagi va turli texnologik vositalardan foydalangan holda tashkil etilgan darslar bolalarning og'zaki nutqini va ularning ingliz tilida gapirish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmiy yoki videoli turli ko'rishlardagi qiziqarli darslarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasm va animalar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish kerak. Misol qilib olganda, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan keng foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning o'zлари foydalangan so'zlarning yodida tez va uzoqqa qolishi, ularni to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Bu holat ularning tarbiyachi o'qituvchilari oldidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdag'i o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish muhim bo'ladi. Chunki, bu orqali o'zlarining kundalik hayotlariga kerak bo'ladigan oddiy jihozlardan tortib, toki qiyin bo'lган jumlalargacha tez yodda qolishga turtki bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lган qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga va qiziqarli o'yinlarga asoslangan zamonaviy didaktik va metodik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam qonun va qoidalarini ishlab chiqish muaomonining amaliy yechimi uchun biroz bo'lsada dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tolipova J. Nurmonov N. Ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar."Xalq talimi", jurnalisti.
2. Faberman B.I. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent:O'Zrfa "FAN"nashr., 2000.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari.Qarshi:" Nasaf", 2003
4. Asqar Zunnunov, Pedagogik nazariyasi.-T., "Aloqachi" 2005.

**Internet resurslari:**

<https://lex.uz>

<https://ta'lim.uz>

<https://cyberleninka.ru>

<https://kompy.info>